

NAMANANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Muhammedova Nazokat Jurayevna

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Talabbojeva Mohinabonu Saydullo qizi

Kalit sòz: *Namangan viloyatida turizm, Chust Pop, Afsonalarvodiysi, Tòraqòrgon.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Namangan viloyatida turizm sohasida olib borilayotgan ishlar, viloyatdagi turistik zonalar va ularning vazifalari keltirilgan.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье представлена работа, проводимая в сфере туризма в Наманганской области, туристские зоны в области и их функции.*

Anbnotation: *this article presents the work carried out in the field of tourism in the Namangan region, the tourism zones in the region and their functions*

Namangan viloyati respublikamizning janubi-sharqida joylashgan bòlib, viloyatda mavjud turizm obyektlari soni 301 tani tashkil etadi. 24 ta ziyoratgoh, 242 ta madaniy meros obyekti, 152 ta arxeologiya yodgorligi, 98 ta arxitektura yodgorligi, 22 ta istirohat bog'lari shular jumlasidan.

Bugungi kunda viloyatda 28 ta tur operator, 4 ta direksiya, 25 ta mehmonxona va 48 ta mehmon uyi (2013 o'rin), jami 78 ta joylashtirish vositasi, 40 ta mikroavtobus, 6 ta gid-tarjimon mahalliy va xorijiy fuqarolarga sayyohlik xizmatlari tashkil qilingan. Sohada 1900 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. 2020-yil davomida xorijiy va mahalliy turistlar uchun 5 ta turizm axborot markazi, 70 ta namunaviy sanitariya-gigiyena shoxobchasi, 40 ta turistik obyektiga olib boruvchi yo'l ko'rsatgich belgilari va 80 ta turizm obyektida Wi-Fi hududlari tashkil qilindi

Chortoq tumanidagi "Sulton Uvays Qaroniy" ziyoratgohi, To'raqo'rg'on tumanidagi "Axsikent ochiq osmon muzeyi", Chust tumanidagi "Bibiona" ziyoratgohi, Pop tumanidagi "Hazrati Bob" ziyoratgohida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, bu maqsad uchun byudjet mablag'lari hisobidan 26,8 mlrd.so'm sarflandi.

Shu bilan birgalikda, homiylik va byudjet mablag'lari hisobidan Namangan shahrida joylashgan "O'n bir Ahmad" va "Qodirxo'ja eshon uyi", Uychi tumanidagi "Devona buva", Chust tumanidagi "Buonamozor" va "Ayritom bobo", Namangan tumanidagi "Xilvatxona" ziyoratgohlarida rekonstruksiya va restavratsiya-tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu obyektlarning ayrimlarida ta'mirlash ishlari davom etayapti.

Shuningdek, joriy yilda 16 ta madaniy meros obyektining infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Madaniyat vazirligi madaniy meros departamenti va Namangan davlat universiteti bilan hamkorlikda "Axsikent" va "Munchoqtepa" (Qadimgi Pop) arxeologik yodgorligini umumjahon YUNESKO ro'yxatiga kiritish uchun nomzodnoma

tayyorlanmoqda. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida respublika miqyosida boshqa viloyat hokimliklari bilan turizm sohasida hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Shuni alohida ta'kidlashni kerakki, viloyat hududining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ekoturizm (tog'li hudud va daryo buyi turistik obyektlari), agroturizm (baliqchilik klasterlari, mevali bog'lar, yilqichilik), gastronomik turizm (Chust osh markazi, mega palov), ziyorat turizmi, ekstremal turizm, etnoturizm, tibbiyot turizmi yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Yirik loyihalardan biri – "Pop Turizm" majmuasi bo'lib, Pop tumanida tog' etagida 54 gektar maydonda joylashadi. Loyiha umumiy qiymati 2,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Bu 2,1 mln. AQSH dollari to'liq xorijiy investitsiya mablag'lari, 0,4 mln. AQSH dollari bank krediti bo'lgan turizm majmuasi loyihasi hisoblanadi. Ushbu loyiha "Apart Hotel Cosmos" MCHJ tomonidan Rossiya Federatsiyasining "Stroy Lider" MCHJ firmalari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 200 o'rinli 3 yulduz toifadagi mehmonxona, 205 o'rinli o'tov tipidagi dam olish maskani, 3 km. Uzunlikdagi yo'lovchi tashuvchi dor yo'li, ovqatlanish shahobchalari, suzish xavzasi, bolalar maydonchalari, kichik amfiteatr va sog'lomlashtirish markazlari bunyod etiladi. Afsonlar vodiysi" esa viloyatning turizm "magniti" hisoblanadi. Umumiy qiymati 618,0 mlrd. So'mlik 155 gektar maydonni egallagan majmuada ayni paytda 113 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 turdagi attraksionli tematik park, 2400 o'rinli amfiteatr, 7 xil suv attraksionlari va 16 ta basseynli akvapark, 2 ta zamonaviy sharshara va musiqali favvora, 3 ta restoran, 1800 o'rinli 2 ta avtoturargoh tashkil etilgan. 2022-yil mart oyiga qadar milliy hunarmandlar markazi, masjid, 400 o'rinli mehmonxona, 110 ta villani ishga tushirish rejalashtirilgan. Bog' to'liq foydalanishga topshirilsa, yiliga 600 ming nafar sayyohlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Chust tumanini turizm markaziga aylantirish mumkin. Bunda "Mavlono Lutfiy" istirohat bog'ida xorijiy va mahalliy aholining turli bosh kiyimlarini o'zida jamlagan "Do'ppi muzeyi" tashkil qilish va Chust do'ppilarining savdosini yo'lga qo'yish, "Bibi ona" ziyoratgohi hamda "Varzik" mahallasidagi "Teshiktosh" va kuzatuv maydoniga ega qoyatoshlarga turlar tashkil qilish, do'ppido'zlar va pichoqchi ustalar mahallalarini tumanning tashrif qog'ozi sifatida foydalanish, Chust tumanining do'ppido'zlik maktabi san'atini YUNESKOning nomoddiy madaniy meroslar obyektlar ro'yxatiga kiritish bo'yicha taklif kiritish bu rejani amalga oshirish mexanizmlari bo'lishi, shubho'asiz.